# XALQ DEPUTATLARI KONIMEX TUMAN KENGASHINING
# Q A R O R I

2023 - yil 27 - yanvar VI-55-12-5-70-K/23 Konimex tuman hokimligi

## Konimex tumanidagi Ma’muriy-hududiy birliklari

## chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Konimex tumanidagi mavjud mahalla, shaharcha va ovullarning ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashlari yakuniga ko‘ra tuman hududining umumiy perimetrii **74220520 metr,** umumiy maydoni **157752797.06 gektar** ekanligi aniqlandi.

Jumladan:

Sho‘rtepa mahallasi perimetri 4904112 metr ekanligi umumiy maydoni 3904,624 gektar;

Navro‘z mahallasi perimetri 4907058 metr ekanligi umumiy maydoni 157,7091 gektar;

Birlik mahallasi perimetri 4906656 metr ekanligi umumiy maydoni 209,9588 gektar;

Do‘stlik mahallasi perimetri 4907846 metr ekanligi umumiy maydoni 337,1878 gektar;

Guliston mahallasi perimetri 4905264 metr ekanligi umumiy maydoni 1075,269 gektar;

Yuksalish mahallasi perimetri 4905734 metr ekanligi umumiy maydoni 5671,781 gektar;

To‘qqiztepa mahallasi perimetri 4908165 metr ekanligi umumiy maydoni 2945,199 gektar;

Sho‘rkul mahallasi perimetri 4917184 metr ekanligi umumiy maydoni 17034,02 gektar;

Zafarobod mahallasi perimetri 4915373 metr ekanligi umumiy maydoni 10126,34 gektar;

Ko‘kcha mahallasi perimetri 4941995 metr ekanligi umumiy maydoni 320,9798 gektar;

Qaraq ata OFY perimetri 4994144 metr ekanligi umumiy maydoni 625484 gektar;

Sarjal OFY perimetri 5000256 metr ekanligi umumiy maydoni 222333,6 gektar;

Yangiqazgan OFY perimetri 4991048 metr ekanligi umumiy maydoni 178496,3 gektar;

Baymurat OFY perimetri 5050897 metr ekanligi umumiy maydoni 178496,3 gektar;

Ushteba OFY perimetri 5064708 metr ekanligi umumiy maydoni 330934,7 gektar;

Konimex tumani buyicha jami perimetri 74220520 metr ekanligi umumiy maydoni 15775279706 gektar;

Kun tartibidagi masala yuzasidan taqdim etilgan ma’lumotlar, fikr va mulohazalarni hamda taklif va tavsiyalarini atroflicha o‘rganib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonunning 10-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Konimex tumani Kengashi

**QAROR QILADI:**

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan Kadastr agentligi Konimex tumani bo‘limi boshlig‘i A.Qurbonov tumandagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi axboroti hamda Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Konimex tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tumanda tuzilgan Ishchi guruhining 2022 yil 28 dekabrdagi yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

2.Konimex tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralari belgilashlarini yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga hamda ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash chegaralarining loyihaviy sxemasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman hokimligi axborot-matbuot xizmati (O.Jangirov) ushbu qaror tuman hokimligining “Konimex.uz” rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin va “Kenimex таны” tuman mahalliy gazetasida e’lon qilinsin.

4.Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5.Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashidan so‘ralsin.

6.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Saitov) hamda Xalq deputatlari tuman kengashining komissiya raislari zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi** **R.Ro`ziyev**

Xalq deputatlari Konimex
tuman Kengashining
2023 yil 27 yanvardagi
VI-55-12-5-70-K/23-son
qaroriga
1-ilova

## Konimex tumanidagi mamuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarini yakuniy natijalari to‘g‘risida

## Malumot

| T/R | Mamuriy- hududiy birliklar soni | Umumiy perimetr (metr) | Umumiy maydoni (gektar) |
|---|---|---|---|
| 1 | Sho‘rtepa mahallasi | 4904192 | 3904,624 |
| 2 | Navro‘z mahallasi | 4907058 | 157,7091 |
| 3 | Birlik mahallasi | 4906656 | 209,9588 |
| 4 | Do‘stlik mahallasi | 4907846 | 337,1878 |
| 5 | Guliston mahallasi | 4905264 | 1075,269 |
| 6 | Yuksalish mahallasi | 4905734 | 5671,781 |
| 7 | To‘qqiztepa mahallasi | 4908165 | 2945,199 |
| 8 | Shurko‘l mahallasi | 4917184 | 17034,02 |
| 9 | Zafarobod mahallasi | 4915373 | 10126,34 |
| 10 | Ko‘kchamahallasi | 4941995 | 320,9798 |
| 11 | Qarakata OFY | 4994144 | 625484 |
| 12 | Sarjal OFY | 5000256 | 222333,6 |
| 13 | Yangiqazgan OFY | 4991048 | 178496,3 |
| 14 | Baymurat OFY | 5050897 | 178496,3 |
| 15 | Ushtobe OFY | 5064708 | 330934,7 |
| | **Tuman bo‘yicha jami** | **74220520** | **1577528** |

Xalq deputatlari Konimex
tuman Kengashining
2023 yil 27 yanvardagi
VI-55-12-5-70-K/23-son
qaroriga
2-ilova

## Navoiy viloyati Konimex tumaning ma'muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari




## Shartli belgilar

Chegaraning asosiy burulish nuqtalari

Chegara chizig'i

**Chegaradosh maxallalar**

**A** dan **B** gacha Navbahor tumani

**B** dan **D** gacha Buxoro viloyati

**D** dan **E** gacha Tomdi tumani

Konimex hokimligi vakili ____________

Davlat kadastrlari palatasi Konimex tuman filliali boshlig'i ____________

Tuman mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi vakili ____________

Navbahor tumani ____________

Chegaradosh mahallalar fuqorolar yig'ini raislari:

Buxoro viloyati ____________

Tomdi tumani ____________

masshtab 1:2000